

Bo'lim boshlig'i:

Atadjanov Sherzod Shuxratovich

Qabul vaqti: Seshanba – Payshanba (14:00-16:00)

Telefon: (0 371)238-64-06, 238-64-29, 238-65-91

E-mail: umb@tuit.uz , umb2015@umail.uz

Bo'lim nomi: O'quv-uslubiy ishlar bo'yicha filiallar bilan ishlash bo'limi

Bo'lim faoliyati haqida ma'lumot: O'quv ishlari bo'yicha filiallar bilan ishlash bo'limi boshlig'i universitet rektori buyrug'i bilan tayinlanadi va bevosita o'quv ishlari prorektoriga bo'ysunadi.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus, Urganch, Qarshi, Samarqand va Farg'ona filiallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi PQ-91 son "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 14 iyundagi 130-son "Oliy ta'lim muassasalari filiallari to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining 2005 yil 21 iyul 07-8/2015-son taqdimnomasini amalga oshirish maqsadida 2005 yil 23 iyuldan mintaqaviy filiallar sifatida tashkil etilgan. Bo'lim hududiy filiallarda o'quv jarayonining O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda universitet tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston uzluksiz ta'limining Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash, o'quv ishlari hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy faoliyatni rivojlantirish, o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, o'quv jarayonini Ta'lim to'g'risidagi qonunlarga muvofiqligini nazorat qilish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtiradi.

Bo'lim vazifasi:

- hududiy filiallarda o'quv jarayoni tashkil etilishini Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining o'quv jarayoni bo'yicha o'rnatilgan talablari va normativ xujjatlariga mosligini ta'minlash, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash, filiallarning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlarini muvofiqlashtirish;
- universitet va turdosh oliy ta'lim muassasalarining aloqa va axborotlashtirish sohasiga doir ishlab chiqilgan yangi ta'lim texnologiyalariga asoslangan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni hududiy filiallarning o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- universitet va uning hududiy filiallari o'rtasida o'quv ishlari, o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish hamda o'zaro tajriba almashishlarni rivojlantirish;
- hududiy filiallarning o'quv jarayoni samaradorligini oshirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.